

YOZMA ISH VA UNING TURLARI

Diyorova Fazilat Mamasaid qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi

shodmondiyarov3@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili ta'limida yozma ish, uning turlari, shakllari va vazifalari haqida so'z yuritilib, ularning tasniflanishi va har birining o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashda, bilim, malaka, ko'nikmalarni chuqur egallashdagi roli ochib berilishi bilan birgalikda yozma ishlar: diktant, insho, esse, tezis kabi yozma ish va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Bundan tashqari yozma ish tanlashda e'tiborli jihatlari va bunga amal qilish me'yorlari, yozma ishlar samarasi izchil ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Yozma ish, esse, insho, diktant, yozma ish shakllari, tanqidiy firlash, kreativ fikrlash, mantiqiy yondashish, muhokama.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan imkoniyatlarni qadrlash va ularni vatan ravnaqi yo'lida amalga oshirish davrimizning talabiga aylandi. "Tabiiyki, bu bizdan barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlarimizni keng ko'lamli islohatlarimizni atroflicha tahlil etib, kelgusi rejalarimizni aniq-ravshan belgilab olishni talab etadi".* Darhaqiqat mustaqilligimizning shonli yo'li barcha sohalarda bo'lgani kabi kadrlar tayyorlashda muhim bo'lgan vazifalarni, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni tadqiq qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ajdodlar me'rosini qadrlash, ularga munosib avlod bo'lish, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alohida e'tibor qaratish ta'kidlanadi. O'tmish, an'analar, axloqiy, ma'rifiy qarashlar bugungi kunni yorituvchi mash'ala sifatida e'tirof etiladi.

XX asrga kelib, raqobatbardosh, kuchli va sifatli kadrlar tayyorlash zamonamizning dolzarb masalasiga aylandi. Chunonchi Behbudiy: "Turkistonda muallim oz bo'lib, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddir... Endi ushbu mushkul hollarni nazari e'tiborga olub, Turkiston yoshlari muallim yetishturmoqning chorasini topmog'I lozimdur", - degan edi asr boshlarida. Shuningdek barcha jabhalardagi islohatlar yangi davr XXI asr taraqqiyoti davrida yangi-yangi natijalar, izlanishlar kutmoqda. Jumladan, til ta'limida ham bir qator kamchiliklar, o'z yechimini topmayotgan muammolar ham talaygina. Ona tili ta'limiga qo'yilgan talab o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma

shaklda savodli bayon qila olishga, kommunikativ savodxonlikka o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. DTS talablariga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

– O'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, nutqiy tafakkurini o'stirish;

– Moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda fikr-o'ylari va his-tuyg'ularini ona tili imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, ona tili ta'limida yozma ishlarni o'rni nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish fanning oldidagi asosiy vazifadir.

Yozma ish atamasi ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Yozma ish – ilmiy xarakterga ega yozma ishlar, yozma shaklda qo'llaniladigan nazariy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nazorat turlari, topshiriqlar, ko'chirib yozish. Nazoratning bu turi, nafaqat, filologiya sohasida, balki boshqa fan sohalarida ham qo'llaniladigan ishlarni o'z ichiga oladi. Masalan, fizika, kimyo, matematika fanlarida ham yoziladigan yozma ishlar shuning misolidir. Bu tipdagi yozma ishlar ilmiy insholar termini bilan ham ataladi. Yozma ishlar maktab o'quvchilarini ilmiy asosda qurollantiradi. Ilmiy insholarning o'ziga xos xususiyatlari unda ilm-fanga oid tushunchalar keng foydalaniladi. Barcha sinflarning yoshi xususiyatlarini inobatga olib ulardan yozma ishlar olish mumkin. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar uchun eng asosiy manba maktab darsliklari, turli ensiklopedik lug'atlar, gazeta va jurnallarda berilgan ilmiy maqolalar, ilmiy mavzulardagi teleko'rsatuvlar bo'lishi mumkin. Ilmiy xarakterdagi yozma ishlar o'quvchilarning ko'plab fanlardan olgan bilimlarini sinash va mustahkamlashga asoslanadi.

2. Yozma ish – yozma shaklda bajarilgan ijodiy ishlar (insh, ijodiy bayon, esse), tinglab tushunish, xotira kuchini belgilash, tafakkur darajasi va fikrni yozma tarzda bayon qilish ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan (bayon) so'zma-so'z tinglab, tushunib, xotira kuchini sinab, tasavvurda jonlantirib yozish va imlo me'yorlariga amal qilish darajalarini mo'ljallashga qaratilgandir. Asosan, ilmiy xarakterdagi ishlar uchun – yozma ish, ijodiy xarakterdagi ishlar uchun esa insho atz atamasi xoslangan. Bundan tashqari maktabda yozma ishlar qaysi maqsadda o'tkazilishiga qarab ikki turga bo'linadi:

a) ta'limiy mavzudagi yozma ishlar

b) tekshiruv (nazorat) yozma ishlari.

O'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishda diktantning ham o'rni katta. Diktant lotincha “dikto” so'zidan olingan bo'lib, “aytib turmoq, so'zlamok” ma'nolarini bildiradi. Diktantlar hozirgi adabiy til me'yorlariga amal qilinishi, uning mazmuni muayyan sinf o'quvchilariga tushunarli bo'lishi, bog'lanishli matn ko'rinishida bo'lishi talab etiladi.

Ta'limiy diktantlar biror imlo qoidasi bilan bog'liq bo'lgan fonetik,so'z yasalishi va morfologik mavzuni mustahkamlash,uni o'quvchi ongida saqlash uchun maqsad qilinadi.Ko'zlangan maqsadiga ko'ra ta'limiy diktantlar 3 turga bo'linadi:

- 1)orfografik xarakterdagi ilmiy diktantlar
- 2)nazariy bilimlarni mustahkamlaygigan ta'limiy diktantlar.
- 3)nutq o'stirish xarakteridagi ta'limiy diktantlar.

O'quv amaliyotida yozma ishlarni insho yozdirish yo'li bilan ham rivojlantirish yuqori natija bergan.Negaki,yozma ishning bu turida o'quvchi erkin ijod qilish,mantiqiy fikrlash,xulosa chiqarish ko'nikmalari ro'yobga chiqadi.Boshqa yozma ishlarda esa bu cheklangan bo'ladi.

Insho so'zi arabcha so'z bo'lib "yaratish,bino qurish"ma'nosini beradi.O'quvchi bunda muayyan mavzu yuzasidan mustaqil holda fikr yuritadi.Bugungi kun adabiyot o'qitish metodikasi ilmida insho quyidagicha tasnif qilinadi:

I.Shakliga ko'ra:

- a)og'zaki insho
- b)yoza insho

II.Pedagogik maqsadiga ko'ra:

- a)ta'limiy insho b)nazorat insho

III.Yo'nalishiga ko'ra:

- a)adbiy insho b)erkin insho c)adabiy-ijodiy insho

IV.Janriga ko'ra: a)rivoya insho b)tasviriy insho c)muhokama insho d)taqriz insho f)munozara insho g)tadqiqiy insho v.h.k

Bundan tashqari bugungi kun ona tili ta'limida dolzarb bo'lgan jihatlar: erkin fikrlay olish,tanqidiy yondashish,kreativ baholash,mantiqiy munosabat bildirish kabi maqsadlarni ilgari surishda amaldagi yangi darsliklarga singdirilgan yuqoridagi maqsadlarni o'z ichiga olgan mavzularni ko'rinishimiz mumkin.Zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilgan ushbu talablardan kelib chiqib hozirda yozma ish sifatida esse,tezislarni ham amalda qo'llamoqdamiz.Esseda o'quvchi publitsistik uslubdan foydalangan holda ma'lum bir mavzuga o'zining tanqidiy,kteativ,mantiqiy fikrlarini berishi,dalillar keltirishi,fikrini asoslashi lozim.Bu ijodiy ish mobaynida o'quvchi o'z fikrlarini jamlab qoralama qilib yozib qo'yishi maqsadga muvofiq.Unda dalil,ya'ni o'quvchining o'z qarashlarini asoslash va bayon etilajak fikrning to'g'riligini isbotlash uchun faktlar keltiriladi.Kirish qismida yozma ishning zarurligi,dolzarbligini,nimadan iborat ekanligi ko'zda tutiladi.Asosiy qismida asosiy mavzuga doir ma'lumotlar yoritilib beriladi va bu qism essening 80 foizini tashkil qilishi zarur.Xulosa qismida esa ijodiy ish,mavzu yuzasidan chiqarilgan umumiy xulosa yakuni aks etmog'i lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki,ona tili o'qitish metodikasiga asoslangan darslarning baholash sistemasida yozma ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.O'qituvchi yozma ish tanlashda o'quvchilarning yosh psixologiyasi,til imkoniyatlari,bilim

saviyasiga mos tarzda mavzu tanlashi va ularning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishi lozim. Shuningdek, o'quvchi yoshlarning bilim olishi, izlanishlarini maqsad qilib, ularni monitoring qilish shakllarini ham an'anaviy va noan'anaviy tarzda amalga oshirish yuzasidan bilim va malakalarga jalb etishida yozma ishlarning o'rni nihoyatda katta. Bunda asosan, ona tili o'qituvchilarining oldida turgan vazifalar anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Madayev, A. Sobirov, Z. Xolmanova, Sh. Toshmirzayeva, G. Ziyodullayeva, M. Shamsiyeva, Yozma ish turlari: Insho, Bayon, Diktant - T.: "Turon zamin ziyo", 2017
2. S. Dolimov Ta'limiy bayon va insho. - T.: "O'qituvchi", 1968.
3. S. Dolimov, va boshqalar Adabiyot o'qitish metodikasi, - T.: "O'qituvchi", 1967
4. B. Qo'ldoshov, Yozma ishlarni o'tkazish va baholash metodikasi (ma'ruza matni) Andijon-2006
5. G. Kurbanioyov, Jalilov Sadaddin. Amaliy o'zbek tili. Nukus "Nur-Turan-Print"
6. S. Oqmonova Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil qilish www.in-academy.uz Article info 1-jild 6-son

—